

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETINING
PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**PEDAGOGIK TA'LIM: XALQARO
TAJRIBA VA INNOVATSION
YONDASHUVLAR**

*mavzusidagi an'anaviy ilmiy-amaliy anjuman
materiallari*

(Buxoro, 2022-yil 6-aprel)

Buxoro – 2022



kompozitsiyasining tugri keladigan tarkibini asoslangan holda tanlash imkoniyatini beradi.

Suvda eriydigan yuqori molekulali sintetik quyuqlashtiruvchilar asosida yangi kompozitsiyaning tarkibini ishlatish va tekshirish keltirilgan importli quyuqlashtiruvchilar va bosiladigan bo‘yoqlarni keltirishni ular keskin qisqartirilishiga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Weber H., Ströhle J. Современное состояние технологий предварительной и последующей обработок тканей. // Текс.пром., 1997.- №3.- С.7-9.
2. Chen J., Jane J. Preparation and properties of granular cold-water-soluble starches by alcoholic-alkaline treatment. Cereal Chem. 1994.- 71(6). – P. 618-626
3. Способы получения эфиров крахмала. А. с. СССР №1754723, кл С 08 В 31/12 1985.
4. Получение карбоксиметилкрахмала. Патент Индии №157014, опубл.1985 г.
5. Hofreiter B.T.: Miscellaneous modifications in: Modified starches: properties and uses/Ed O.B.Wurzburg. CRC Press, Inc, Florida, 1986. - P. 179-196.

CHIQINDILAR MUAMMOSINI BARTARAF ETISHDA OILADAGI EKOLOGIK TARBIYANING ROLI

Ochilova N.R.

BuxDU Ekologiya va geografiya kafedrasi katta o‘qituvchisi

Dunyo miqyosida ishlab chiqarish sanoat tobora taraqqiy etib borayotgan bugungi kunda chiqindilar muammosi ham eng dolzarb ekologik masalalardan biriga aylanib bormoqda. Taraqqiyot natijasida yuzaga kelayotgan ekologik vaziyatlar ularning atrof muxitga salbiy tasiri nafaqat iqtisodiy siyosiy va ijtimoiy balki ekologik masalalarining xam ijobiy yechimlarini topish zarurligini ko‘rsatadi. Insoniyat tomonidan tabiiy boyliklardan haddan tashqari ortiqcha, foydalanish, unda ekologik omillar ahamiyatini e’tiborga olmaslik tufayli o‘rmon, daraxtzorlar



yo‘q bo‘lib, ko‘plab o‘simlik, hayvon turlari va foydali qazilmalar kamayib bormoqda. Bir og‘iz so‘z bilan aytganda, jahon miqyosida insoniyatning tabiatga ko‘rsatayotgan salbiy tasiri kuchaymoqda. Atrof muhitni ifloslantiruvchi sanoat va maishiy chiqindilarning hajmi ortib, tabiat qonuniyatlariga bo‘ysinmasdan unga keskin tasir ko‘rsatish oqibatida ekologik muammolarning keskinlashuviga sabab bo‘lmoqda. Yuzaga kelayotgan ekologik muammolarning barchasi bizning mintaqamiz uchun ham o‘ta dolzarbdir.

Mamlakatimizda mustaqillik yillarida atrof muhit – muhofaza qilishga oid 50 ga yaqin qonun va 500 dan ortiq meyoriy – huquqiy hujjatlar qabul qilindi, tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni hamda fuqarolarning atrof - muhitga oid huquqini kafolatlaydigan xalqaro konvensiyalar, shartnoma va bitimlar imzolandi. Atrof – muhit musaffoligini taminlash, aholi yashaydigan punktlarning sanitariya holatini yaxshilash, chiqindilarni boshqarish bo‘yicha ham qator meyoriy hujjatlar qabul qilingan. Xususan chiqindilar to‘g‘risidagi qonun shular jumlasidandir. Qonunda chiqindilar bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish, ularning fuqarolar hayoti, sog‘lig‘i va atrof muhitga zararli tasirini oldini olish chiqindilarning hosil bo‘lishini kamaytirish va ulardan xo‘jalik faoliyatida foydalanish munosabatlarini tartibga solish belgilab berildi. Shuningdek qonunda chiqindilardan ikkilamchi xom – ashyo sifatida foydalanish ham ko‘rsatilgan. O‘zbekiston Respublikasining “Chiqindilar to‘g‘risida” gi Qonunning asosiy vazifasi fuqarolar hayotiga, atrof – muhitga tasirining oldini olish va chiqindilarni kamaytirishdan iboratdir.

Atrof – muhitni ishlab chiqarish va istemol chiqindilaridan muhofaza qilish tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hamda ekologik toza texnologiyalarni amaliyatga tadbiq etish muammolari bilan uzviy bog‘liqdir.

Chiqindilar o‘z o‘rnida atrof-muhit va aholi salomatligiga salbiy ta’sir etib, bir qancha ekologik muammolarni jumladan chiqindilar muammosini keltirib chiqaradi. Bu holat maishiy va sanoat chiqindilarini zararsizlantirish, utilizatsiya qilish va qayta ishslash ustuvor masala ekanligidan dalolat beradi.



Ma'lumki turli maishiy chiqindining malum qismi oziq-ovqat, qog'oz va karton, to'qimachilik mahsulotlari, plastmassa va boshqa chiqindilardir.Ulardan qayta ishlashga kerak bo'ladigan foydali komponentlarni ajratib olish mumkin. Afsuski bu chiqindilarning asosiy qismi saralanmaydi, qayta ishlanmaydi. Natijada ming minglab gektar maydonni egallagan chiqindi xonalarda ko'plab hajmdagi sanoat, qurilish va maishiy chiqindilar saqlanmoqda. Achinarlisi shahar va qishloqlarni chiqindilardan tozalab turish masalasi ham dolzarbligi saqlangan holda maxsus avtomobillar yetishmasligi eskirganligi sabab korxonalar va aholi chiqindilarni chiqindi to'kishga mo'ljallanmagan hududlarga chiqarib tashlaydi. Natijada bazi joylar va hududlarda soxta chiqindi xonalar paydo bo'lmoqda. Chiqindi xonaga aylangan bunday joylarni tozalash, tartibga keltirish yo'q qilish esa katta kuch va moliyaviy mablag' talab etadi.

Maishiy va uy ro'zg'or chiqindilarini sanitariya-demiologiya talablariga rioya qilgan holda to'plash, tashish va utilizatsiya qilish muammosini hal etish juda dolzarb va muhim vazifalardan biriga aylangan.

Ishlab chiqarish va iste'mol jarayonida hosil bo'layotgan chiqindilarni kamaytirish ulardan xo'jalik faoliyatida qayta foydalanish salbiy tasirini kamaytirish va shu orqali atrof-muhit xavfsizligini taminlash hamda tabiiy resurslarning tejalishiga shuningdek aholi sog'ligi va genofondini asrab avaylashga mamlakatimizning barqoror rivojlanishiga zamin yaratadi.Bu muammolarni bartaraf etishda birinchi navbatda chiqindilarni to'plash, turlarga ajratish, saqlash, utilizatsiya qilish va qayta ishlash ishlarini to'g'ri tashkil etilishiga etibor qaratish lozim.

Darhaqiqat tabiatni muhofaza qilish ishlarining samaradorligi barchaning birday ishtirokini talab etadi. Bunda ayniqsa yoshu keksa, har bir fuqaro o'z masuliyatini bilmog'i bu borada ekologik madaniyat shakllangan bo'lmog'i talab etiladi. Fuqarolarning ayniqsa mamlakatimiz kelajagi bo'lgan yosh avlodning ekologik madaniyatini tarbiyalashda oila muhim ro'l o'ynaydi. Ekologik



muammolar malum bir hududgagina tegishli emas, bu muammolar chegara bilmaydi. Ekologik tarbiya ayniqsa yoshlarning ozodlik, tejamkorlik, saramjon-sarishtalik, mehnatsevarlik kabi fazilatlarga ega bo‘lishlari, atrof –muhitga bee’tibor bo‘lmasligi ishlatilayotgan narsalardan tejab tergab foydalanish hisobiga iqtisodiy tejamkorlik haqidagi tushuncha ko‘nikmalarni shakllanishiga yordam beradi.

Yuqoridagi fikrlarimizdan kelib chiqqan holda ekologik barqarorlik atrof tabiiy muhit tozaligi musaffoligini taminlash sanitariya gigiyena holatining yaxshilanishi yoshlarning mehnatidan manfaatdorlik hissini oshirish maishiy uy ro‘zg‘or chiqindilarini sanitariya epidemiologiya talablariga rioya qilgan holda to‘plash, tashish va utilizatsiya qilish muammosini hal etish mavzulariga qaratilgan loyihalarni yaratish, amalga oshirish, ota-onalar uchun farzand tarbiyasida ekologik madaniyatni shakllantirishga qaratilgan uslubiy qo‘llanmalar yaratilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Molles. Manuel C. «Ecology: Concepts and Applications» Fourth edition, Published by McGraw - Hill, a business unit of The Mc Graw-Hill Companies, Inc., New York, 2008.
2. Sultonov P.S. «Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish asoslari» Toshkent, 2007.
3. Saloxiddinov A.T, Valiev X.I., Xolmirzaeva M. «Ekologiya»Toshkent, 2014.
4. Mustafayev S, O’roqov S, Duvonov A. «Umumiy ekologiya» Toshkent, 2006.
5. Hamdamov J., Bobomurodov Z., Hamdamova E. «Ekologiya» Toshkent, 2009

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA MUSIQIY TARBIYANING AHAMIYATI

Nurullayev Farrux Gaybullayevich

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa fanlari doktori (PhD), dotsent

Begmurodova Mehriniso Najmiddin qizi

Buxoro davlat universitetining pedagogika instituti



| | | |
|--------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------|
| | TA'LIM TEXNOLOGIYALARI VA ULARNING JAMIYAT RIVOJLANISHIDAGI O'RNI | |
| Tag'oyeva D. Abdullayeva Sh. | MILLIY KUYLARNING INSON RUHIYATIGA TA'SIRI | 915 |
| Abdullayev A.N. | TALABALAR FUQAROLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH TIZIMIDA NUTQ MADANIYATI, MILLIY O'ZLIKNI ANGLASH, ADOLATLILIK | 920 |
| Otaboyeva Z. G'aniyeva K. Turg'unova B. Erkinova S. | OILA VA TA'LIMNING O'ZARO HAMKORLIGIDA MADANIYATNI RIVOJLANTIRISH | 926 |
| Otayeva M. | O'QUVCHILAR SHAXSIGA YO'NALTIRILGAN TA'LIMNING VOSITALARI | 930 |
| Muxsinova U. Abdullayeva S. | OILADA MEHNAT TARBIYASI ESTETIKASI | 933 |
| Muxsinova U. Siddiqova Y. | OILADA AQLIY TARBIYANING ESTETIK QADRYATLARI | 937 |
| Muxsinova U. | OILADA XALQ OG'ZAKI IJODIGA QIZIQTIRISH ESTETIKASI | 941 |
| Alijonova M. Otajonova M. Olimova Z. | MUTAXASSIS FANLARNI O'QITISHDAGI INNOVATSİYALAR VA MODULLI TA'LIM | 946 |
| Abdullayev M.J. | TURLI YOSHDAGI YENGIL ATLETIKACHILAR BILAN DARSdan TASHQARI O'QUV MASHG'ULOTLARINI O'TKAZISH XUSUSIYATLARI, SHAKLLARI VA USULLARI | 951 |
| Abdullayev Y.Z. | YOSHLARNI HARBIY- VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASH TIZIMINI SHAKLLANTIRISH ISTIQBOLLARI SIFATIDA | 961 |
| Adizova Sh. Murodov D. | SINTETIK POLIMER HOSILALARI ASOSIDAGI QUYUQLASHTIRUVCHILAR OLİSH | 965 |
| Ochilova N.R. | CHIQINDILAR MUAMMOSINI BARTARAF ETISHDA OILADAGI | 969 |

